



UDK 327.56(581)+94(549.1) BBK 66.3 (5 Afg) X 69

*Muqaddas XOJIMURODOVA,*

*Tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: zaynabismoilova07@gmail.com tel: 97 776 05 81*

*PhD, H.Mustapova taqrizi asosida*

### AFGHANISTAN FACTOR IN PAKISTAN'S FOREIGN POLICY

Annotation

In the foreign policy of modern Pakistan, the issue of regional peace and security is considered a crucial priority, and its achievement is closely linked to the development of relations with neighboring countries based on mutual respect and sovereign equality. In particular, relations with Afghanistan occupy a special place in Pakistan's foreign policy. This article examines Pakistan's approaches to its relations with Afghanistan and the role of the Afghan factor in regional security policy, and analyzes the regional situation in the contemporary context.

**Keywords:** Irredentism, regional security, TTP, BLA, "Fitna al-Khawarij", "Fitna al-Hindustan".

### АФГАНСКИЙ ФАКТОР ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ПАКИСТАНА

Аннотация

В современной внешней политике Пакистана вопрос регионального мира и безопасности считается важнейшим направлением, и основным условием его достижения остается тесная связь с формированием отношений с соседними государствами на основе взаимного уважения и суверенного равенства. В частности, отношения с Афганистаном занимают особое место во внешней политике Пакистана. Данная статья посвящена подходам Пакистана во взаимоотношениях с Афганистаном и роли афганского фактора в политике региональной безопасности; в ней предпринимается попытка глубокого анализа региональной ситуации в современном контексте.

**Ключевые слова:** Ирредентизм, региональная безопасность, ТТП, БЛА, "Фитна аль-Хаваридж", "Фитна аль-Хиндустан".

### POKISTON TASHQI SIYOSATIDA AFG'ONISTON OMILI

Annotatsiya

Zamonaviy Pokistonning tashqi siyosatida mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik masalasi muhim yo'nalish hisoblanib, unga erishishning asosiy sharti yon qo'shnilar bilan munosabatlarni o'zaro hurmat va suveren tenglik asosida shakllantirish bilan shambarchas bog'liq bo'lib qomogda. Jumladan, Pokiston tashqi siyosatida Afg'oniston bilan munosabatlar alohida o'rin egalaydi. Mazkur maqola Pokistonning Afg'oniston bilan munosabatlardagi yondashuvlari va mintaqaviy xavfsizlik siyosatidagi Afg'oniston omilining roliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu masalaga chuqurroq yondashib, zamonaviy kontekstda mintaqaviy vaziyatni tahlil qilishga urinadi.

**Kalit so'zlar:** Irredentizm, mintaqaviy xavfsizlik, TTP, BLA, "Fitna al-Xavarij", "Fitna al-Hindustan".

**Kirish.** Pokistonning yon qo'shnisi Afg'oniston bilan munosabatlari murakkab xarakterga ega bo'lib, ushbu ikki davlat etnik, madaniy, tarixiy va diniy jihatdan umumiyliklarga egadir. Ushbu hududlarda milliy davlatlar paydo bo'lgunga qadar bu yerdagi xalqlar asrlar davomida o'zaro ta'sirlashib turgan va bu mintaqaga Markaziy Osiyo va G'arbiy Osiyoning ta'siri kuchli bo'lgan. Bugungi kundagi davlatlararo munosabatlar avvallari aniq chegaralar bo'lmagan va ijtimoiy aloqalar o'zaro chatishib ketgan sharoitning yo'qolishiga olib kelgan milliy davlatlarning post-kolonial tajribalaridan kelib chiqadi. Ikkinchidan, mustamlakachi davlatlar va har ikki davlatdagi hukmron elitaning turlicha tajribalari ularni davlat qurilishining turli yo'nalishlariga olib keldi. Afg'onistondagi ketma-ket kelgan hukumatlar Pokiston bilan muammolarni ikki tomonlama masalalar sifatida hal etish istagida bo'lsa, Pokiston doimiy ravishda Afg'oniston bilan kelishmovchiliklarni mintaqaviy xavfsizlik yondashuvining bir qismi sifatida, ayniqsa, Hindiston bilan raqibligi doirasida qarab keldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, Pokiston va Afg'oniston munosabatlari mintaqa olimlari va G'arbda juda yaxshi o'rganilganligini qayd etish lozim. Qator manbalar orasida biz mahalliy olimlarning tadqiqotlariga ustuvor ahamiyat berishni

lozim deb topdik. Xususan, pokistonlik olim H.Baqai tahriri ostidagi to'plam Pokistonning Afg'oniston bilan munosabatlariga majmuaviy yondashuvni taklif qilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ushbu manba bu murakkab masalaning zamonaviy tahlili hisoblanib, to'plamni tayyorlashda ko'plab mualliflar qatnashgan. Shu bilan birga, mazkur maqolani yozishda mahalliy nashrlarning mintaqadagi vaziyat rivojiga oid xabarlariga ham tayanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur mavzuni o'rganishda tarixiy tahlil, tizimli tahlil va kontent tahlil metodlariga murojaat qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Pokiston tashqi siyosatida mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik masalasi muhim yo'nalish hisoblanib, uning asosida yaqin qo'shnilar bilan munosabatlarni o'zaro hurmat va suveren tenglik asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Pokistonning Milliy Xavfsizlik Siyosati (NSP) [1] 2022–2026 hujjatida Afg'oniston bilan munosabatlar asosiy mintaqaviy xavfsizlik yo'nalishlaridan biri sifatida tilga olingan. Ushbu hujjatda Afg'oniston Pokiston xavfsizlik muhitining ajralmas qismi sifatida baholanib, uning barqarorligi yoki beqarorligi Pokiston xavfsizligiga bevosita ta'sir qilishi qayd etiladi [2].

Pokiston 1947-yilda mustaqillikka erishganidan so'ng Afg'oniston uni rasman tan olgan birinchi davlat bo'ldi. Shunga qaramay, o'sha davrdan boshlab ikki davlat o'rtasidagi keskinliklarning sababi Afg'onistonning irredentizmi va Dyurand chizig'i (1893-yilda Britaniya va Afg'oniston o'rtasida chizilgan chegaraning rad etilishi bo'lib qolmoqda. Afg'oniston bu chiziqni tan olmay, uni vaqtinchalik deb hisoblab kelgan. 1947-yil sentyabr oyining oxirida BMTning 92-yalpi majlisida Afg'oniston vakili Husayn Aziz Pokistonning BMTga a'zo bo'lishi uchun ovoz bermadi [3].

Afg'onistondagi kommunistik davlat to'ntarishidan so'ng Pokiston yangi tuzumni tan oldi, lekin kommunistik hukumat bilan munosabatlar yaxshi emas edi. 1979–1989-yillardagi Sovet-Afg'on urushi davrida Pokiston millionlab afg'on qochqinlarini qabul qilib, AQSh va boshqa G'arb davlatlari bilan hamkorlikda mujohidlarni qo'llab-quvvatladi. Mujohiddlar o'z mamlakatlariga Sovet qo'shinlari bostirib kirishiga qarshi qo'zg'olonning bir qismi bo'lib, Pokistondagi mujohid tashkilotlariga birlashgan afg'on jangchilari kommunistik rejimga qarshi jihod qilmoqchi edi. Sovet Ittifoqiga qarshi jihodni targ'ib qilish Ziyo-ul-Haq (1978 - 1988) davridagi Pokistondagi islomlashtirish kun tartibiga muvofiq edi. Bu davr Pokiston uchun geosiyosiy jihatdan muhim bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik bu hamkorlik ko'plab xavfsizlik muammolariga sabab bo'ldi. Chunki bu Pokistondagi islomiy elementlarning afg'on mujohidlari guruhlari bilan misli ko'rilmagan integratsiyasiga olib keldi va Pokistondagi madrasa tarmoqlarini kengaytirish va mustahkamlashga turtki bo'ldi. Pokiston Afg'on urushidan o'z strategik manfaatlari uchun foydalandi: Hindistonga qarshi xavfsizlik qalqoni yaratish maqsadida AQSh yordamida o'z armiyasini modernizatsiya qilish, mintaqada ta'sir kuchini oshirish, va Afg'onistonda o'ziga do'st hukumat o'rnatish. Bularning barchasi Pokiston harbiylarining nazorati ostida olib borilgan bo'lib, Pokiston elitasining pashtunlarga nisbatan munosabatini ham tushunishga yordam beradi. Shu tariqa, Pokiston harbiy elitasining maqsadi pashtun milliy harakatini bostirib, uni diniy ekstremizm bilan almashtirishga qaratilgan va Afg'onistonga nisbatan siyosat orqali ham pashtunlar ustidan nazoratni ushlab turishga harakat qilgan [4; P. 17-19].

2001-yildan so'ng AQShning Afg'onistonga bostirib kirishi ortidan Pokiston rasmiy jihatdan AQShning "terrorga qarshi urushi"dagi ittifoqdoshi bo'ldi, ammo bir necha holatlarda Tolibonga bevosita yoki bilvosita yordam berishda ayblandi. So'nggi 20 yillik voqealar rivoji Pokistonning Afg'onistonga nisbatan siyosatining ziddiyatli bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Bir tomondan Pokiston AQShni va Afg'onistonning rasmiy hukumatini qo'llab-quvvatladi, boshqa tomondan Tolibon yetakchilariga o'z hududida boshpana berdi.

Tolibon 2021-yil avgustida yana hokimiyat tepasiga kelgach, Pokiston-Afg'oniston munosabatlarida navbatdagi yangi bosqich boshlandi. Pokiston rasmiylari bu voqeani nisbatan ijobiy qabul qilgan bo'lsalar-da [5], tez orada xavfsizlik bilan bog'liq muammolar, ayniqsa, chegara hududlarida Tolibon bilan bog'liq to'qnashuvlar, hamda "Tehrik-i-Tolibon Pokiston" (TTP-Pokiston toliboni) faoliyatining kuchayishi natijasida munosabatlar yana taranglashdi. Pokistonning mudofaa vaziri Xavaja Asif BBCga bergan intervyusida Pokistonga hujum qilish uchun Afg'oniston hududidan foydalanmaslik haqidagi iltimoslarga qaramasdan Tolibon hukumati TTPga qarshi hech qanday chora

ko'rishni istamayotganligini bildirdi. 2024-yilning iyun oyidan beri Pokiston o'zining Afg'oniston bilan chegaradosh hududlarida zo'ravonlik va terrorchilik hujumlarining kuchayishining oldini olishga qaratilgan "Azim-e-Istehkam" ("Barqarorlik uchun qaror") deb nomlangan harbiy operatsiyalarni olib bormoqda. Shuningdek, ushbu operatsiya doirasida Afg'oniston hududiga ham bir nechta zarbalar amalga oshirildi. Tolibon esa buni o'z suverenitetining buzilishi deb baholadi [6]. Shu bilan birga, TTP mafkuraviy jihatdan afg'on toliblari bilan bog'langan va tahlilchilar fikricha, afg'on Toliboni Pokistonning umidlari qaramay, TTP ga qarshi qat'iy choralar ko'rishga tayyor emas. So'nggi xabarlarga ko'ra, guruh Afg'onistonning Kunar, Nangarhor, Xost va Paktika viloyatlarida o'quv lagerlari tashkil qilgan. TTP "Al-Qoida" bilan yaqin aloqada va yangi dalillar uning "Xuroson viloyati islomiy davlati" (ISKP) bilan muvofiqlashtirib butun mintaqaga tahdidni kuchaytirayotganini ko'rsatmoqda. 2025-yil so'nggi o'n yillikdagi eng qonli yil bo'lib, TTPning 1272 ta terrorchilik xurujlari oqibatida 3417 kishi qurbon bo'ldi [7]. Pahaligam voqealaridan keyingi Kashmirdagi keskinlashuv vaqtida guruh tashqi bosim davrida yuzaga keladigan zaiflikdan foydalanib, Pokiston nishonlariga hujumlarni kuchaytirdi. Shu nuqtai nazardan, Pokiston Axborot vaziri Ataulla Tarar Hindistonni TTPni qo'llab-quvvatlash va diqqatni Kashmirdan chalg'itish uchun Pokistonning g'arbiy chegarasini beqarorlashtirish uchun proksi tuzilmalardan foydalanganlikda gumon qilinishini bildirdi [8].

Xavfsizlikka tahdidlardan yana biri bu – Pokistonning Balujiston viloyatidagi Balujiston ozodlik armiyasi (Balochistan Liberation Army (BLA) 2000-yillarda tashkil topib, 2006-yillardan boshlab faollashgan) boshchiligidagi separatistik harakat bo'lib, o'tgan yil davomida BLA 150 ga yaqin hujumlarni amalga oshirdi, jumladan, 2025-yil mart va may oylari orasida uchta yirik terrorchilik huruji amalga oshirildi: Bolan darasida Jaffar Ekspress poyezdining egallab olinishi va yo'lovchilarning garovga olinishi, Machdagi harbiy karvonning portlatilishi va Xuzdarda maktab avtobusining portlashi shular jumlasidandir. Hujumlar xavfsizlik kuchlari va transport infratuzilmasiga, xususan, temir yo'l tarmog'iga qaratilgan bo'lib, yirik mojarolarda Islomobodning logistika jihatidan zaifligini ochib berdi. Shu bilan birga, BLA so'nggi yillarda Xitoy fuqarolari va ular tomonidan qurilayotgan infrastruktura obyektlariga hujum qilishni boshladi. Ushbu ayirmachi guruh davlatning va Xitoyning Balujistondagi investitsiya faoliyatini ekspluatatsion deb hisoblaydigan yosh va o'qimishli balujlarni faol ravishda o'z safiga jalb qilishda davom etmoqda [9]. Balujistondagi ushbu xavfsizlik muammosining Afg'oniston bilan munosabatlarga aloqador jihati shundaki, Pokistonning ushbu ma'muriy viloyati janub-sharqdan Afg'oniston bilan chegaradosh va Pokiston rasmiylari Tolibon hukumatini va Hindistonni baluj ayirmachilariga boshpana berish va homiylik qilishda ochiqchasiga ayblamoqda [10]. Pokistonning rasmiy axborot ma'lumotlarida TTP "Fitna al-Xavarij"<sup>1</sup> va BLA "Fitna al-Hindustan"<sup>2</sup> deb nomlandi, Kobul va Nyu-Dehli, o'z navbatida, Pokiston isyonchilarini "terrorchi harakatlar" deb atadi.

Terrorchilik hujumlaridan tashqari, yana chegara masalalari ham borki, bu ham ikki qo'shni o'rtasida muayyan bahslarga sabab bo'lmoqda. 2025-yilning mart oylarida Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi Torxam o'tish punkti yaqinida chegarani belgilash bo'yicha kelishmovchilik har ikki

<sup>1</sup> Pokiston TTPni "Fitna al-Xavarij" deb atash orqali uni islomiy nuqtayi nazardan legitim bo'lmagan, radikal, buzg'unchi guruh sifatida tasvirlamoqda. Bu atama diniy, harbiy va siyosiy darajalarda TTPga qarshi keng ko'lamli operatsiyalarni oqlash vositasi sifatida ishlatilmoqda.

<sup>2</sup> BLAni "Fitna al-Hindustan" deb atash - bu Pokistonning axborot strategiyasi bo'lib, guruhni chetdan boshqarilayotgan, Hindistonga xizmat qilayotgan, milliy

birlik va suverenitetga tahdid soluvchi tashkilot sifatida ifodalash uchun tanlangan. Pokiston razvedkasi (ISI) va armiyasi BLAni ko'pincha Hindistonning R&AW (Research and Analysis Wing) razvedka agentligi bilan hamkorlikda deb da'vo qiladi. Ularning ta'kidlashicha, Hindiston BLAga moliyaviy, razvedkaviy va logistik yordam ko'rsatmoqda — bu orqali Pokistondagi ayirmachilik kayfiyatini kuchaytirmoqda.

davlat xavfsizlik kuchlari o'rtasida qurolli to'qnashuvga aylanib ketdi. Ushbu hodisa Pokiston-Afg'oniston munosabatlarining yanada yomonlashishiga olib kelish bilan birga, chegara punktining yopilishi va u bilan bog'liq bo'lgan harbiy harakatlar har ikki mamlakatning oddiy aholisiga ham salbiy iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatdi [11].

Tomonlar o'rtasida Tolibon iqtidorga kelgandan keyin yuzaga kelgan keskin masalalardan biri bu bir necha o'n yillar davomida Pokistonda boshpana topgan afg'on qochoqlarining ommaviy deportatsiya qilinishi bo'ldi. Jumladan, 2025-yilning aprelida 80 mingdan ortiq afg'on deportatsiya qilingan. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) hisob-kitoblariga ko'ra, 2023-2025-yillarda 2,4 milliondan ortiq afg'on deportatsiya qilindi. Birdaniga ko'p sonli qochoqlarning ortga qaytishi Afg'onistonda ijtimoiy taranglikni kuchaytirib, ISHID va Al-Qoida kabi ekstremistik guruhlarning uchun qulay zamin yaratishi mumkin. Shuningdek, Pokistonda tug'ilib o'sgan va u yerga o'rnatilgan afg'onlar uchun bu erishilgan narsalarni yo'qotish va hammasini yangidan boshlash bo'lgani uchun ham ayanchli holatdir. Kuzatuvchilar fikricha, deportatsiya qilinganlarning Tolibon hukumati tomonidan Afg'onistonning shimoliy viloyatlariga, jumladan, cheklangan infratuzilma va xizmatlar qochqinlar oqimiga bardosh bera olmaydigan Qo'shtepa kanali bo'yidagi hududlarga joylashtirish harakatlari alohida tashvish uyg'otadi. Bu gumanitar vaziyatni og'irlashtiradi va chegara hududlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda barqarorlikka tahdid solishi mumkin [12].

So'nggi vaqtlarda ikki davlat o'rtasida otishmalar jadallashib, Pokiston tomonining iddao qilishicha, Afg'oniston tomondan TTP jangarilarining kirib kelib, xavfsizlik tizimlari xodimlari va davlat xizmatchilariga nisbatan suiqaasdlari rekord

darajaga yetgan [13]. Bir necha doirada Doxada va Istambulda o'tkazilgan sulh muzokaralari natijasiz tugadi. Afg'oniston Tashqi ishlar vaziri Amirxon Muttaqiy Pokiston bilan muzokaralar haqida gapirib, Pokiston rasmiylari tomonidan ichki xavfsizlik muammolarini Afg'onistonni ayblash orqali hal qilishga urinishlari mantiqsizligini bildirgan. Uning bayonot berishicha, Pokiston xavfsizlik va terror bilan bog'liq ichki muammolarini boshqa davlatga yuklashga harakat qilmoqda, bu esa o'zaro muloqot va diplomatiya tamoyillariga ziddir [14]. Ikki davlat o'rtasida 2026-yil boshida yuzaga kelgan keskin vaziyat tufayli Pokiston mudofaa vaziri ochiq urush boshlanganini e'lon qildi. Forz ko'rfazidagi urush fonida Pokiston-Afg'oniston urushi biroz e'tibordan chetda qolgan bo'lsada, to'qnashuvlar davomli tus olmoqda. Xitoy vositachiligidagi Urumchi tinchlik muzokaralari hali aniq natija bera olmadi. Davom etayotgan keskinlik va o'zaro zarbalar murakkab va noaniq vaziyatning saqlanib qolishidan darak bermoqda [15].

**Xulosa va takliflar.** Pokiston va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlar doimiy o'zgarib turuvchi mintaqaviy geosiyosatning mahsuli hisoblanadi. Tarixiy beqarorlik, o'zaro ishonchsizlik va xavfsizlik muammolari hozirgi aloqalarning murakkabligini tushuntirib beradi. Pokiston Afg'onistondagi barqarorlikni mintaqaviy xavfsizlik uchun muhim deb biladi, biroq Tolibon hukumatining harakatlari va TTP tahdidining kuchayishi munosabatlarni yana tang ahvolga solmoqda. Har ikki davlat manfaatlarini, ayniqsa xavfsizlik, iqtisod va migratsiya sohalarida bir-biriga chambarchas bog'liq, shu bois uzoq muddatli barqarorlik faqat o'zaro ishonch va konstruktiv diplomatiya vositasi bilanгина ta'minlanishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Revisiting the NSP. By Mirza Z. June 13, 2025. <https://www.dawn.com/news/1916884> (murojaat qilingan sana: 12.05.2016);
2. "A peaceful, stable and sovereign Afghanistan is in Pakistan's vital national interest." (NSP, External Security section) <https://nsd.gov.pk/SiteImage/Misc/files/NSP%20summary.pdf> (murojaat qilingan sana: 12.05.2016);
3. Hakimi H., Nishat Z. Pakistan-Afghanistan Relations: Emergence of New Nation States and the Search for Identity. Pakistan-Afghanistan Relations: Pitfalls and the Way Forward. H.Baqai and N.Wasi (Eds.), Friedrich Ebert Stiftung, 2021. ISBN: 978-969-9675-30-0. - P. 7;
4. Hakimi H., Nishat Z. Pakistan-Afghanistan Relations: Emergence of New Nation States and the Search for Identity. Pakistan-Afghanistan Relations: Pitfalls and the Way Forward. H.Baqai and N.Wasi (Eds.), Friedrich Ebert Stiftung, 2021. ISBN: 978-969-9675-30-0. - P. 17-19;
5. 'A win for Pakistan': Imran Khan gambles on Taliban ties. By Findlay S. September 30, 2021. <https://www.ft.com/content/257853d9-acb6-432b-92d4-a1b45335a388> (murojaat qilingan sana: 10.07.2025);
6. Pakistan will continue attacks in Afghanistan - minister. By Javed F. 2 July 2024. <https://www.bbc.com/news/articles/c7289yv184po>. (murojaat qilingan sana: 17.07.2025);
7. CRSS Annual Security Report 2025. Pakistan's Security Landscape – 2025. <https://crss.pk/border-closure-brings-down-terrorist-violence/> (murojaat qilingan sana: 12.05.2026);
8. Afghanistan og Pakistan: En periode med tvunget partnerskap? By Institute of Advanced International Studies. Gafarov I., Islamov B. 23.06.2025. <https://geopolitika.no/afghanistan-og-pakistan-en-periode-med-tvunget-partnerskap/> (murojaat qilingan sana: 18.07.2025);
9. Who are the Baloch Liberation Army? Pakistan train hijacking was fuelled by decades of neglect and violence. <https://theconversation.com/who-are-the-baloch-liberation-army-pakistan-train-hijacking-was-fuelled-by-decades-of-neglect-and-violence-252120>. (murojaat qilingan sana: 17.07.2025);
10. Pakistan links train hijacking to 'Afghan handlers' and Indian mastermind. By Hussain A. March 14, 2025. <https://www.aljazeera.com/news/2025/3/14/pakistan-links-train-hijacking-to-afghan-handlers-and-indian-mastermind>. (murojaat qilingan sana: 18.07.2025);
11. Torkham dispute. March 9, 2025. <https://www.dawn.com/news/1896753>. (murojaat qilingan sana: 17.07.2025);
12. Afghanistan og Pakistan: En periode med tvunget partnerskap? By Institute of Advanced International Studies. Gafarov I., Islamov B. 23.06.2025. <https://geopolitika.no/afghanistan-og-pakistan-en-periode-med-tvunget-partnerskap/> (murojaat qilingan sana: 18.07.2025);
13. Pakistan to Kabul: Dismantle terror sanctuaries as 'single-point' dominates Doha talks. By Staff Report. October 19, 2025. <https://www.pakistantoday.com.pk/2025/10/19/pakistan-to-kabul-dismantle-terror-sanctuaries-as-single-point-dominates-doha-talks/> (murojaat qilingan sana: 13.12.2025); Taliban, TTP and Balochistan: The three ody problem facing Pakistan - explained. By Aashish Saxena, December 11, 2025. <https://timesofindia.indiatimes.com/world/pakistan/taliban-ttp-balochistan-the-three-ody-problem-facing-pakistan-explained/articleshow/125833712.cms>. (murojaat qilingan sana: 13.12.2025);
14. Afghanistan-Pakistan peace talks collapse, ceasefire continues, Taliban says. By Reuters, November 9, 2025. <https://www.tbsnews.net/world/afghanistan-pakistan-peace-talks-collapse-ceasefire-continues-taliban-says-1280496>. (murojaat qilingan sana: 13.12.2025);
15. Demarche to Afghan Taliban Regime on Terrorist Attack on Police Post in Bannu. <https://mofa.gov.pk/press-releases/demarche-to-afghan-taliban-regime-on-terrorist-attack-on-police-post-in-bannu>. (murojaat qilingan sana: 11.05.2026);